

G'AYRIIJTIMOIY XULQ-ATVORLI XOTIN-QIZLARGA NISBATAN
SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNING HUQUQIY TAVSIFI

Jamoat xavsizligi universiteti
Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi
Kamilov Maxmudjon Abduqaxorovich
e-mail: spy_1771@mail.ru
Jamoat xavsizligi universiteti
"Xavsizlikni huquqiy ta'minlash" kafedrasida kursanti
Tashmamatova Gulmira Abdumannon qizi
E-mail: Tashmamatovagulmira461@gmail.com

Annotatsiya; Mazkur maqolada g'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlarning viktimologik tavsifi, ularning jinoyat qurboni bo'lib qolishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Xususan, ijtimoiy-demografik xususiyatlar, psixologik holat, ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit hamda xulq-atvor omillarining o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhit, huquqiy savodxonlik darajasi va ijtimoiy nazoratning sustligi viktimlashuv xavfini oshiruvchi muhim omillar sifatida ko'rib chiqilgan. Muammoni bartaraf etishda kompleks yondashuv, jumladan, profilaktika choralari, huquqiy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: g'ayriijtimoiy xulq-atvor, viktimologiya, viktimlashuv, xotin-qizlar, ijtimoiy muhit, psixologik omillar, iqtisodiy omillar, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy nazorat, jinoyat qurboni

Аннотация: В данной статье рассматривается виктимологическая характеристика женщин с девиантным (антисоциальным) поведением, а также анализируются основные факторы, влияющие на их вероятность стать жертвами преступлений. Особое внимание уделяется социально-демографическим признакам, психологическому состоянию, социальной среде, экономическим условиям и поведенческим особенностям. Также раскрывается роль семейной среды, уровня правовой грамотности и недостаточного социального контроля как факторов, повышающих уровень виктимизации. Обоснована необходимость комплексного подхода к решению данной проблемы, включающего профилактические меры, повышение правовой грамотности и социальную поддержку.

Ключевые слова: антисоциальное поведение, виктимология, виктимизация, женщины, социальная среда, психологические факторы, экономические факторы, правовая грамотность, социальный контроль, жертва преступления

Jamiyat har doim rivojlanishda bo'lganidek, jinoyatchilik ham rivojlanib, murakkablashib va takomillashib bormoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ochish borasida xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari, qolaversa barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini takomillashtirish davr talabidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni jazolashdan afzaldir, ya'ni huquqbuzarliklarning sodir etilishi natijasida fuqarolar, davlat va jamiyat ham iqtisodiy, ham ma'naviy zarar ko'radi.

Darhaqiqat, Dunyoda xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasi masalasi davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning doimiy diqqat markazida bo'lib qolayotganligi, sodir etilgan jinoyatlarning **20-30%** xotin-qizlar hissasiga to'g'ri kelib, ular o'rtasidagi jinoyatchilik salmog'i ortib borayotganligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, bu ko'rsatkich **Amerika Qo'shma Shtatlarida 23%, Buyuk Britaniyada 24%, Germaniyada 25%** tashkil etganligi, jahon hamjamiyati oldiga xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini ta'minlashning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish va ularni amaliyotga tadbiiq etish zaruriyatini qo'ymoqda.

Jumladan, mamlakatimizda ham xotin-qizlar jinoyatchiligi profilaktikasini ta'minlashda yangi uslublarni joriy etish, xotin-qizlar jinoyatchiligi kelib chiqishining oldini olish bilan bog'liq milliy qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, ularning jamiyatdagi faolligini oshirib, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Shu jihatdan mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani bejizga emas.

Xotin-qizlarga bo'lgan yuksak e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida bugungi kunda ayollarimizning jamiyatdagi mavqei yanada oshdi.

Xususan, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi (CEDAW) Konvensiyasiga qo'shildi. Ammo, shuni ham aytib o'tish lozimki, mamlakatimizda ayollar tomonidan xam sodir etilayotgan jinoyatlar soni ham ortib bormoqda

“Gayriijtimoiy” hamda “viktimalogiya” tushunchalarining mohiyatini tushunmay turib bu haqda fikr yuritib bo'lmaydi. Huquqshunoslik fanida “G'ayriijtimoiy “ va “viktimalogiya” atamalriga turli xil qarashlar mavjud. Viktimalogik tavsif,avallo shaxsning ijtimoiy-demografik belgilarni o'rganishni nazarda tutadi.G'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlar orasida ko'pincha yosh jihatdan

nisbatan faol, yani o'n sakkiz o'ttiz besh yosh orasida ko'proq uchraydi. Bu davrda inson hayoti davomida ijtimoiy faollikning yuqori bo'lishi, mustaqil qarorlar qabul qilish va turli muhitlar bilan faol aloqada bo'lish bilan harakterlanadi. Shu sababli aynan ushbu yosh toifada xavfli vaziyatlarga duch kelish ehtimoli ham yuqori bo'ladi. Turmush qurmagan, ajrashgan yoki ijtimoiy jihatdan yolg'iz qolgan ayollar viktim bo'lib qolish xavfi yuqori bo'ladi. G'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlarning muhim yana bir belgilaridan biri-uning ijtimoiy me'yorlarga nisbatan be'farqligi yoki ularni muntazam ravishda buzishga moyilligi hisoblanadi. Bunday ayollar ko'pincha tartibsiz hayot tarzini olib boradi. O'z harakatlarining qanday oqibatga olib kelishini tushunib yetmaydi. Bu esa ularning jinoyatda qurbon bo'lish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu toifadagi ayollarning viktimalogik tavfsifida ularning ijtimoiylashuv darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha ayollar bunday noqulay oilaviy muhitda voyaga yetgan bo'ladi. Oilada e'tiborsizlik mehr-muhabbat yetishmasligi, zo'ravonlik yoki doimiy nizolar mavjuda bo'lishi shaxsning ruhiy va ahloqiy holati shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bunday muhitda ulg'aygan qizlar, ayollar jamiyat qoidalariga moslashishda qiynaladi hamda asosan salbiy ijtimoiy guruhlar ta'siriga tushib qoladi. Psixologik jihatdan qaralganda, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlar ko'pincha emotsional beqarorlik, impulsivlik, stressga chidamlilikning pastligi kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Ushbu turdagi shaxslarda o'zini nazorat qilish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib bu murakkab vaziyatlarda noto'g'ri qarorlar qabul qilishga olib keladi. Ayrim hollarda ular xavfni anglab turib ham unga e'tibor bermaydi yoki uni mensimaydi. Bu asa jinoyatchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Viktimalogik tavfsifida xulq-atvor omillari ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, spirtli ichimliklarni este'mol qilish, tungi hayot tarziga berilish, notanish yoki ishonchsiz odam shaxslar bilan yaqin munosabatlarga kirishish kabi holatlar ayolning himoyasizligini oshiradi. Ayniqsa ongni o'zgartiruvchi moddalar ta'sirida bo'lish shaxsning vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatini pasaytiradi va o'zni himoya qilish imkoniyatlarini keskin kamaytiradi. Ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar ham muhim ahamiyatga egadir. G'ayriijtimoiy xulq-atvorli ayollar qizlar ko'pincha kriminagen vaziyatlar mavjud bo'lgan hududlarda bo'ladi, jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan joylarga tez-tez boradi yoki shunday muhitdagi shaxslar bilan aloqada bo'ladi. Bu esa ularning jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga tez-tez duch kelishiga olib keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy nazoratning sustligi, ya'ni yaqinlar, oila yoki jamiyat tomonidan yetarli e'tibor va nazoratning yo'qligi ham viktimlashuv xavfini oshirib boradi. Huquqiy savodxonlik darajasi ham viktimalogik tavfsifning muhim elementi hisoblanadi. Ko'plab hollarda g'ayriijtimoiy xulq-atvorli ayollar qizlar o'z huquqlarini yetarlicha bilmaydi yoki ularni himoya qilish mexanizimidan bexabar bo'ladi. Bu esa nafaqat jinoyat sodir etilishiga, balki uning oqibatlarini bartaraf etishda ham qiyinchiliklarga olib keladi. Ayrim syollar turli

sabablarga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojat qilishdan qo'rqishadi yoki iymnadi ularni ishonchsiz deb hisoblaydi. Iqtisodiy omillar ham viktimlashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Moddiy yetishmovchilik, ishsizlik yoki daromad manbaining yo'qligi ayollarni xavfli faoliyatga jalb qilishi mumkin. Ba'zi hollarda ular moddiy manfaat evaziga xavfli vaziyatlarga ongli ravishda kirib boradi, bu esa ularning jinoyat qurboni bo'lish ehtimolini yanada oshiradi. G'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlarning viktimalogik tavsifi ularning ijtimoiy aloqalar tizimida ham namoyon bo'ladi. Ular ko'pincha ijobiy ijtimoiy aloqalardan uzilgan bo'ladi ya'ni barqaror oila, ish joyi yoki sog'lom ijtimoiy muhitga ega emas. Ular salbiy ta'sirga ega bo'lgan guruhlar bilan ko'proq muloqot qiladi, bu esa ularning hulq-atvorini yanada murakkablashtiradi.

G'ayriijtimoiy hulq-atvorli xotin qizlarning viktimalogik tavsifi ko'p omilli va murakkab tizimni tashkil etadi. Ularning jinoyat qurboni bo'lish ehtimoli shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit, psixologik holat, iqtisodiy sharoit va hulq-atvor omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu sababli mazkur muammolarni hal etishda kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda profilaktika, huquqiy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari alohida o'rin tutadi. G'ayriijtimoiy xulq-atvorli xoti-qizlarning jinoyatda viktim bo'lib qolish muammosi zamonaviy jamiyatda dolzarb ijtimoiy-huquqiy masalalardan biri hisoblanadi. so'nggi yillarda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqsodiy o'zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari, alohida turmush tarzining o'zgarishi natijasida ayrim, shaxslar, xususan xotin-qizlar orasida g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllanishi kuzatilmoqda. Bunday xulq-atvor esa ularning jinoyat qurboniga aylanish ehtimolini sezilarli darajada darajada oshiradi. Viktimalogiya fanida qayt etilishicha, jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hulqi, va hayot tarzi jinoyat sodir etishda muhim rol o'ynaydi G'ayriijtimoiy xulq-atvor deganda jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar tushuniladi. Bunday xulq-atvor ko'pincha spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan, tartibsiz hayot tarzini olib boorish, ijtimoiy nazoratdan chetta qolish, nomalum va shubhali shaxslar bilan muloqot qilish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, xotin-qizlar orasida bu kabi xulq-atvorning mavjudligi ularning himoyasizligini yanada kuchaytiradi va jinoyatchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Xotin-qizlar jinoyatda viktim bo'lib qolishiga ta'sir etuvchi omillarni bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim ahamiyatga ega. Ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, ta'lim darajasining pastligi, ijtimoiy muhitga tushib qolishgasabab bo'ladi. Bunday sharoitda ayollar ko'pincha xavfli muhitga kirib qoladi, noqonuniy faoliyat yurituvchi shaxslar bilan aloqaga kirishadi va natijada jinoyat qurboniga aylanadi. Oilaviy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Oiladagi nizolar, zo'ravonlik, e'tiborsizlik tarbiyaning yetishasligi ayollarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nosog'lom oilaviy muhitda voyaga yetgan yoki yashayotgan ayollar

ko'pincha ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadi.

Xulosa qilsak, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlarning jinoyat qurboni bo'lib qolishi ko'p omilli va murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu holat shaxsning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit hamda huquqiy savodxonlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, nosog'lom oilaviy muhit, ijtimoiy nazoratning sustligi va salbiy ijtimoiy aloqalar viktimlashuv xavfini oshiradi. Mazkur muammoni kamaytirish uchun profilaktika choralarini kuchaytirish, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. G'ulomov S.S. Viktimologiya asoslari. – Toshkent: Adolat, 2018.
2. Ismoilov B.I. Jinoyat huquqi va viktimologiya. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
3. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – Moskva: Prospekt, 2019.
4. Антонян Ю.М. Виктимология. – Москва: Норма, 2017.
5. Кудрявцев В.Н. Причины преступности. – Москва: Юрист, 2016.
6. Siegel L.J. Criminology: Theories, Patterns, and Typologies. – Boston: Cengage Learning, 2021.
7. Walklate S. Victimology: The Victim and the Criminal Justice Process. – London: Routledge, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.